

Moliyaviy nazorat va ichki audit bo'yicha bosh mutaxassis		
Ma'lumot	Oliy	<i>Kamida bakalavr darajasiga ega bo'lishi lozim.</i>
Mutaxassislik	Iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishlari	<i>Tanlovning suhbat bosqichida nomzodlarning imkoniyatlari teng bo'lgan taqdirda ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan yoki - xalqaro TOP-500, TOP-1000 ro'yxatidagi OTMlarni tugatgan nomzodlarga qo'shimcha ball beriladi. Bunda qo'shiladigan ball Tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda baholash mezoniga kiritiladi.</i>
Mehnat staji	Davlat boshqaruv organlarida mazkur sohaga aloqador yo'nalishda kamida 2 yillik ish stajiga ega bo'lishi	<i>Davlat tashkilotlarida mazkur sohaga aloqador yo'nalishda kamida 2 yillik ish stajiga ega bo'lishi</i>
Davlat tilini bilishi	Davlat tilini bilishi	<i>Suhbat jarayonida og'zaki va yozma nutqda fikrlarini uzviy ifoda eta olishi lozim.</i>
Xorijiy tilni bilish darajasi	Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlariga ega bo'lgan shaxslarga afzalliklar beriladi	<i>Tanlovning suhbat bosqichida nomzodlarning imkoniyatlari teng bo'lib qolgan taqdirda xorijiy tilni bilish darajasi belgilangan IELTS, TOEFL, IBT, CEFR kabi sertifikatlarning darajasiga qarab yuqori darajaga ega bo'lgan nomzodlarga qo'shimcha ball beriladi. Bunda qo'shiladigan ball Tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda baholash mezoniga kiritiladi.</i>
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office (Word, Excel, Power point), ofis dasturlarini mukammal bilishi, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalana olishi	<i>Word, Excel, PowerPoint kabi ilovalar hamda Internet tarmog'ida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Nomzodning test sinovi bosqichida AKT yo'nalishida berilgan savollarga javobi suhbat jarayonida inobatga olinadi. Bunda test sinovi natijasi bo'yicha qo'yiladigan ball Tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda baholash mezoniga kiritiladi. Test sinovi savollari tarkibidagi AKT yo'nalishi vazni tashkilot tomonidan belgilanadi.</i>
Qo'shimcha talablar	Ichki audit bo'yicha milliy malaka sertifikatiga ega, soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish tajribasi bo'lishi	<i>- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, shuningdek, Hukumatning qaror va farmoyishlaridagi turizm sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha berilgan topshiriqlardan xabardor bo'lishi; - ishga nisbatan mas'uliyatlilik, halollik, xushmuomalalik, qat'iyyatlik va talabchanlik.</i>